



UDC:(UO‘K, УДК): 8.11.134.2

Dilrabo BAXRONOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, DSc
E-mail:dbaxronova@uzswlu.uz
Farangiz TAIROVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Filol.f.d, professor J.Yoqubov taqrizi asosida

TARIXIY TOPONIMLAR: ARAB TILI TA’SIRIDA SHAKLLANGAN ISPAN VA O‘ZBEK GEONOMIK MODEL

Annotatsiya

Ma’lumki, VIII asrdan boshlangan arablar istilosi Piriney yarim oroli hamda Movarounnahr (Markaziy Osiyo) hududlari til tizimi va toponimikasiga sezilarli ta’sir ko’rsatgan. Arab tilining lug’aviy qatlamiga mansub ko’plab atamalar nafaqat umumiy leksikaga, balki geografik nomlar – toponimlar tizimiga ham kirib borgan. Ushbu maqolada ispan va o‘zbek tillarida uchraydigan arabcha toponimlar etimologiyasi, ularning fonetik moslashuvi va tarixiy asoslari lingvistik va madaniy kontekstda tahlil qilindi. Jumladan, ispan tilidagi Guadalupe, Almería, Alhambra, Guadalajara kabi nomlar hamda o‘zbek tilidagi Rabot, Balandrabot, Qo’shrabot toponimlari tahlil etildi. Mazkur toponimlar o‘zaro geografik uzoqlikka qaramay, umumiy semantik ildizlarga ega, bevosita arab tilining har ikki hudud til tizimidagi izlarini yaqqol ko’rsatadi. Ushbu tadqiqot arab, ispan va o‘zbek madaniyatlari o‘rtasidagi tarixiy-lingvistik aloqalarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda translingvistik hodisalar va madaniy merosni tadqiq etishda muhim ilmiy asos bo’la oladi.

Kalit so‘zlar: toponimika, arabcha-o‘zbekcha, arabcha-ispancha, etimologiya, fonetik moslashuv, tarixiy lingvistika, madaniy meros.

HISTORICAL TOPONYMS: THE GEONOMIC MODEL OF SPANISH AND UZBEK UNDER THE INFLUENCE OF THE ARABIC LANGUAGE

Annotation

It is well known that the Arab conquests beginning in the 8th century had a significant impact on the linguistic systems and toponymy of both the Iberian Peninsula and the region of Mawarannahr (Central Asia). Numerous terms from the Arabic lexical layer entered not only the general vocabulary but also the system of geographical names – toponyms. This article analyzes the etymology, phonetic adaptation, and historical foundations of Arabic toponyms found in the Spanish and Uzbek languages, within linguistic and cultural contexts. For example, the Spanish toponyms Guadalupe, Almería, Alhambra, and Guadalajara, along with the Uzbek toponyms Rabot, Balandrabot, and Qo’shrabot, are studied in detail. Despite the geographical distance, these toponyms share common semantic roots and clearly demonstrate the influence of Arabic in both language systems. This research contributes to a deeper understanding of historical-linguistic ties between Arabic, Spanish, and Uzbek cultures and provides a valuable scientific foundation for exploring translinguistic phenomena and cultural heritage.

Keywords: toponymy, Arabic-Spanish, Arabic-Uzbek, etymology, phonetic adaptation, historical linguistics.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ТОПОНИМЫ: ГЕОНОМИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ИСПАНСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ ПОД ВЛИЯНИЕМ АРАБСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Известно, что арабские завоевания, начавшиеся в VIII веке, оказали значительное влияние на языковые системы и топонимику как Пиренейского полуострова, так и региона Мавераннахр (Средняя Азия). Многочисленные термины из арабского лексического слоя вошли не только в общий словарный запас, но и в систему географических названий – топонимов. В данной статье анализируются этимология, фонетическая адаптация и исторические основы арабских топонимов, встречающихся в испанском и узбекском языках, в лингвистических и культурных контекстах. Например, подробно изучаются испанские топонимы Гваделупа, Альмерия, Альгамбра и Гвадалахара, а также узбекские топонимы Работ, Баландработ и Кошработ. Несмотря на географическую удаленность, эти топонимы имеют общие семантические корни и наглядно демонстрируют влияние арабского языка в обеих языковых системах. Это исследование способствует более глубокому пониманию историко-лингвистических связей между арабской, испанской и узбекской культурами и дает ценную научную основу для изучения транслингвистических явлений и культурного наследия. Ключевые слова: топонимия, арабо-испанский, арабо-узбекский, этимология, фонетическая адаптация, историческая лингвистика.

Kirish. Toponimlar – bu muayyan geografik hududlar bilan bog‘liq bo‘lgan va joy nomlarini ifodalovchi leksik birliklardir. Ular tilning lug‘aviy boyligi tarkibiga kirib, xalq tarixi, madaniyati hamda geografik muhitining uzviy aloqasini aks ettiradi. Toponimika esa geografik nomlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va hozirgi holatini o‘rganuvchi mustaqil lingvistik fan sohasi hisoblanadi. Aksariyat joy nomlari nihoyatda qadimiy bo‘lib, ularning etimologik tahlili turli

xalqlarning tarixiy migratsiyasi, o‘zaro madaniy ta’siri va siyosiy jarayonlari haqida muhim ma’lumot beradi [3].

Turkiston o‘lkasi uzoq yillar davomida arab madaniy ta’siri ostida bo‘lganligi sababli, mintaqaning toponimik tizimida arab tilining izlari yaqqol seziladi. Arab tili nafaqat din va ilm-fan tili sifatida xizmat qilgan, balki ko‘plab geografik nomlarning shakllanishida ham muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, diniy e’tiqodlar, payg‘ambar va avliyolar nomi bilan bog‘liq joy nomlari alohida o‘rin egallaydi [9].

Bugungi kunda ham O'zbekistonda arab tilidan olingan ko'plab toponimlar saqlanib qolgan.

Shu bilan birga, arab istilosi davrida paydo bo'lgan rabot (harbiy istehkom) atamasi mintaqa toponimikasida alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, S. Qorayev o'zining Toponimika qo'llanmasida Buxoro yaqinidagi Paykand atrofida mingdan ortiq rabot bo'lganini qayd etadi. Bu harbiy postlar arablar tomonidan o'z qo'shinlarini joylashtirish hamda turkiy xalqlarning hujumidan himoyalaniish maqsadida qurilgan. Hozirgi kunda ham O'zbekiston hududida Balandrabot, Beshrabot, Oltirabot, Chuqurrabot, Qo'shrabot kabi joy nomlari uchraydi.

Bundan tashqari, arab tilidan o'zlashgan bob (bobil), nahr, tal (tepa), masjid (machit), madrasa kabi atamalar ham Markaziy Osiyo toponimiyasida keng uchraydi. Shuningdek, arablar kelishidan avval mavjud bo'lgan qadimiy joy nomlari ham saqlanib qolgan. Masalan, Narshaxiyning Buxoro tarixi asarida qayd etilgan Shofirkon, Karmana, G'ijduvon, Ishtixon kabi toponimlar arab istilosidan oldingi davrlarga borib taqaladi va mintaqaning toponimik qatlamining ko'p qirraliligini namoyon etadi.

Ispaniya hududida arab istilosi davomida shakllangan va o'z ahamiyatini saqlab qolgan ko'plab geografik nomlar mavjud. Bu toponimlar ispan madaniyati va til tizimida arab madaniy ta'sirining muhim dalillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Mozarves, Mozarbitos (Salamanka hududi), Toledanos, Villagallegos, Asturianos, Tormes kabi joy nomlari arabcha ildizga ega bo'lib, Andalusiya va uning atrofidagi hududlarda arabcha toponimik unsurlarning keng tarqalganligini ko'rsatadi [4]. Ayniqsa, harbiy va topografik terminologiya ispan toponimiyasida arab tilining ta'sirini ochiq-oydin namoyish etadi.

Ispan tilida qariyb 4000 ga yaqin arabcha o'zlashma so'zlar mavjud bo'lib, bu ikki madaniyat o'rtasidagi uzoq tarixiy aloqalarni tasdiqlaydi. Ayniqsa, arabcha harbiy va strategik atamalar ko'plab toponimlar tarkibida uchraydi, jumladan:

Atalaya – qo'riq minorasi
Al-Matalla – harbiy lager
Al-Baroc – dushmanlik hududi
Al-Dea – qishloq
Al-Cala – qal'a
Al-Caid – komendant
Al-Bacea – ijrochi
Al-Cor – tepalik

Al-Foz – trakti

Shuningdek, Alcalá (arabcha Al-Qal'a) Ispaniya toponimiyasida keng tarqalgan bo'lib, Alcalá de Henares (Madrid viloyati), Alcañiz (Saragosa viloyati), Alcalá del Obispo, Calahorra (Rioxa provinsiyasi) kabi oykonimlarda uchraydi. Ushbu nomlarning umumiy xususiyati – ularning arabcha ildizga ega bo'lishidir, bu esa Andalusiya davrida arab madaniy ta'sirining chuqur iz qoldirganligini isbotlaydi.

Toponimlarning etimologik tahlili

1. Guadalupe

Arabcha yozilishi: وادي اللبّة (Wādī al-Lubbah)

Ispancha shakli: Guadalupe

Etimologiya:

Wādī (وادي) – arab tilida “vodiy”, “soy”.

Lubbah (اللبّة) – “daryo irmog'i” yoki “o'tloq”.

Guadalupe toponimi Ispaniyaning Ekstremadura mintaqasida joylashgan mashhur Guadalupe vodiysi va monastiri bilan bog'liq bo'lib, arabcha “wadi” atamasi bu yerning tabiiy landschaftini aks ettiradi [4]. Ko'pchilik tadqiqotchilar “Guadalupe” nomining kelib chiqishini arabcha Wādī (vodiyy) va ispancha lobo (bo'ri) so'zlarining kombinatsiyasi sifatida tushuntiradi, ya'ni “bo'rilar vodiysi” yoki “bo'ri daryosi” ma'nosini anglatadi.

Biroq, ba'zi manbalarda bu nom “Wādī al-Lubbah” – ya'ni “o'tloqli vodiyy” ma'nosida kelib chiqqani ta'kidlanadi. Ushbu nom geografik joylashuv va tabiiy muhit bilan bevosita bog'liq bo'lib, arab tilidan ispan tiliga o'tgan fonetik va semantik o'zgarishlarning yorqin namunasi hisoblanadi.

Guadalupe nomining kelib chiqishi va tarixi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu toponim dastlab Ispaniyada paydo bo'lib, keyinchalik ispan mustamlakachilari tomonidan Yangi Dunyoga, ayniqsa Lotin Amerikasiga olib o'tilgan.

Ispan tilidagi manbalarga ko'ra, “Guadalupe” nomi Meksika va butun Lotin Amerikasida muqaddas Bokira Maryamga nisbatan ishlatiladi. Ushbu nom XVI asrda ispanlar tomonidan aztek poytaxti yaqinida hindistonlik Juan Diego oldida vahiyning ko'rinishi bilan bog'liq holda berilgan. Shu bilan birga, bu nom Ispaniyaning Ekstremadura mintaqasida joylashgan muqaddas Virgen de Guadalupe ga ishora qiladi.

Bu tahlil shuni ko'rsatadiki, Guadalupe toponimi o'zining ilk kelib chiqishida arabcha ildizga ega bo'lsa ham, u ispan madaniy va diniy kontekstida yangi ma'no kasb etgan. Ispanlar uni o'z diniy tushunchalari bilan bog'lab, uni yangi hududlarda saqlab qolgan va keng tarqatgan.

Jadval 1. Guadalupe toponimi: tarixiy va lingvistik jihatlar	
Asosiy jihatlar	Tavsif
Kelib chiqishi	Arabcha Wādī al-Lubbah – “O'tloqli vodiyy” yoki Wādī al-Lubb – “Bo'rilar vodiysi”
Ispancha shakli	Guadalupe
Asosiy geografik joylashuvi	Ekstremadura (Ispaniya), Meksika, Lotin Amerikasi
Dastlabki diniy bog'liqlik	Virgen de Guadalupe – Ispaniyadagi bokira qiz siymosi
Yangi Dunyo konteksti	XVI asrda Meksikada Juan Diego vahiyi orqali katolik diniy merosiga aylangan
Lingvistik evolyutsiya	Arabcha wādī (vodiyy) va lotincha yoki ispancha lobo (bo'ri) so'zlarining kombinatsiyasi orqali o'zgarishi
Madaniy ahamiyati	Katolik dunyosida muqaddas siymo sifatida hurmat qilinishi, yangi mustamlaka hududlariga madaniy meros sifatida tarqalishi

Ushbu jadval Guadalupe toponimining lingvistik, geografik, diniy va madaniy jihatlariga asoslangan holda uning shakllanish jarayonini ko'rsatadi. Dastlab, uning kelib chiqishi arabcha “Wādī al-Lubbah” (“O'tloqli vodiyy”) yoki “Wādī al-Lubb” (“Bo'rilar vodiysi”) iboralariga borib taqaladi. Keyinchalik Guadalupe nomi Ispaniyaning Ekstremadura mintaqasida paydo bo'lib, Virgen de Guadalupe nomi bilan katolik diniy merosiga singib ketgan. XVI asrda ispan mustamlakachilari ushbu nomni Meksikaga olib kelishdi, u esa mahalliy Juan Diego vahiyi orqali yangi diniy ma'noga ega bo'ldi. Lingvistik jihatdan nom arabcha “wādī”

(vodiyy) va lotincha yoki ispancha “lobo” (bo'ri) so'zlari orqali shakllangan bo'lib, vaqt o'tishi bilan fonetik va semantik o'zgarishlarga uchragan. Guadalupe nomining madaniy ahamiyati juda katta bo'lib, u katolik dunyosida muqaddas siymo sifatida e'tirof etilgan va ispan mustamlakalari orqali keng tarqalgan, shu bilan birga yangi hududlarda diniy va madaniy identifikatsiyaning muhim elementi bo'lib xizmat qilgan.

Guadalupe toponimi turli madaniy, til va tarixiy jihatlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, uning kelib chiqishi haqida bir nechta etimologik nazariyalar mavjud. Ushbu

toponim Andalusiya'dagi arab istilosi davridan boshlab shakllangan va vaqt o'tishi bilan turli tillarda turlicha talqin qilingan.

Andalusiya'dagi arabcha talqin. Bu nazariyaga ko'ra, Guadalupe arabcha wadi ("daryo") va lubb ("bo'ri") so'zlarining birikmasidan hosil bo'lgan. Ushbu atama Andalusiya'da keng tarqalgan bo'lib, "bo'rilar daryosi" ma'nosini anglatgan. Bu, o'z navbatida, arablarning hududiy nomlash an'analari ispan toponimiyasiga bo'lgan ta'sirini ko'rsatadi.

Hayvon nomlari bilan bog'liq talqin. Ispan manbalarida arab dunyosida bo'rilarni atash uchun turli so'zlar qo'llanilganligi ta'kidlanadi. Andalusiya'dagi arabcha "sirhan" va "di'b" atamallari bo'rilarni bilan bog'liq bo'lib, ushbu nomlarning shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Lotincha va arabcha uyg'unlashuvi. Boshqa bir talqinga ko'ra, Guadalupe nomi arabcha Wad-al-Luben

("yashirin daryo") atamasidan kelib chiqqan bo'lib, bu daryoning tor va yashirin yo'nalishda oqishi bilan bog'liq. Ushbu versiya arab tilidagi "wadi" va "lubb" so'zining dialektal o'zgarishlarini ham tushuntirib beradi.

Lotincha va arabcha aralash shakllanishi. Yana bir versiyada Guadalupe nomi arabcha guada ("daryo") va lotincha lupus ("bo'ri") so'zlarining birikmasidan hosil bo'lgan deb taxmin qilinadi. Bu nazariya ispan tilida arab va lotin elementlarining uyg'unlashib, yangi semantik birlik hosil qilish jarayonini namoyon etadi.

Nahuatl tili nazariyasi. Guadalupe nomining Meksikadagi mahalliy talqini Nahuatl tiliga borib taqaladi. Bu versiyaga ko'ra, nom "ilonni ezuvchi" ma'nosidagi afsonaga asoslangan bo'lib, Meksikada muqaddas Virgen de Guadalupe siymosining paydo bo'lishi bilan bog'liq [2].

Jadval 2. Guadalupe toponimi: lingvistik tahlil jadvali		
Nazariya	Tavsif	Til va tarixiy asos
Hayvon nomlari bilan bog'liq talqin	Arab tilida bo'rilarni ifodalovchi sirhan va di'b atamallari mavjud bo'lib, bu nomning shakllanishiga ta'sir qilgan.	Arab madaniyatining zoologik terminologiyasi ispan toponimiyasiga ta'sir ko'rsatgan.
Lotincha va arabcha uyg'unlashuvi	Wad-al-Luben ("yashirin daryo") shaklida bo'lib, bu yerning geografik tuzilishi bilan bog'liq.	Arabcha "wadi" va "lubb" so'zlarining dialektal moslashuvi natijasida paydo bo'lgan.
Lotincha va arabcha aralash shakllanishi	Arabcha guada ("daryo") va lotincha lupus ("bo'ri") so'zlarining uyg'unlashuvi natijasida hosil bo'lgan.	Ispan tilidagi arab va lotin so'zlarining fonetik-morfologik integratsiyasi natijasida vujudga kelgan.
Nahuatl tili nazariyasi	Guadalupe Nahuatl tilida "ilonni ezuvchi" ma'nosidagi afsonaga asoslangan.	XVI asrda Meksikada ispan mustamlakachilari tomonidan qabul qilingan va mahalliy diniy kontekstga moslashtirilgan.

Ushbu jadval Guadalupe toponimining turli etimologik talqinlarini aks ettirib, uning arabcha, lotincha va nahuatl tili kontekstlaridagi ma'nolarini ko'rsatadi. Andalusiya'dagi arabcha talqin bu nomning arab istilosi davrida keng tarqalganligini tasdiqlab, uni wadi ("daryo") va lubb ("bo'ri") so'zlaridan kelib chiqqan deb izohlaydi. Tadqiqotimiz davomida arabcha hayvon nomlarining ispan tilidagi toponimlarga ta'siri kuzatildi. Lotincha va arabcha uyg'unlashuvi esa Wad-al-Luben ("yashirin daryo") atamasi orqali nomning hududiy xususiyatlarga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Lotincha va arabcha aralash shakllanishi arabcha guada ("daryo") va lotincha lupus ("bo'ri") so'zlarining fonetik-morfologik uyg'unlashuvi natijasida shakllanganligini bildiradi.

Nihoyat, nahuatl tili nazariyasi XVI asrda ispan mustamlakachilari tomonidan mahalliy madaniyatga moslashtirilgan nom sifatida Guadalupe toponimini "ilonni ezuvchi" degan afsonaga bog'laydi. Ushbu turli nazariyalar Guadalupe nomining tarixiy va lingvistik o'zgarishlarini hamda madaniyatlar o'rnatidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi.

Almería – Ispaniyaning janubidagi Andalusiya mintaqasida joylashgan qadimiy shahar bo'lib, uning nomi bir necha lingvistik qatlamlarni o'z ichiga olgan. Bu toponim arab istilosi davrida shakllangan bo'lib, uning kelib chiqishiga doir turli nazariyalar mavjud.

Almería nomining eng keng tarqalgan talqini arab tilidagi "al-Mirāyah" (المِرْيَاة) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u "oyna" yoki "kuzatuv minorasi" degan ma'noni anglatadi. Ushbu nom shaharni 955-yilda Qurtuba xalifasi Abdurrahmon III tomonidan asos solingan va uning strategik joylashuvi bilan bog'liq. Al-Mariyya (المريّة) atamasi arab tilida "qo'riq minorasi" yoki "ko'zatuv joyi" ma'nosini ham anglatishi mumkin, bu esa shaharning o'rta asrlardagi mudofaa ahamiyatini aks ettiradi.

Shuningdek, ba'zi manbalarda "Al-Mariyya" so'zi "dengizning oynasi" deb tarjima qilinadi. Bu izoh shaharning O'rta Yer dengizi qirg'og'ida joylashganligi va uning dengiz orqali kelayotgan harakatlarni kuzatishda muhim strategik nuqta bo'lganligini tasdiqlaydi. Almería o'sha davrda Andalusning harbiy va savdo markazi sifatida xizmat qilgan.

Almería toponimi haqida boshqa lingvistik talqinlar ham mavjud. Masalan, tadqiqotchi Enrique Cabrejas ushbu nomni iber tilidagi qisqartma deb hisoblaydi va u "tuzi ko'p qirg'oq" degan ma'noni anglatishini taklif qiladi [1]. Ushbu talqin shaharning dengizga yaqin joylashganligi va undagi tuz qazib olish faoliyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Alhambra – bu Ispaniyaning Granada shahrida joylashgan va jahon me'morchiligining eng yuksak namunalaridan biri hisoblangan qadimiy saroy-qal'a majmuasi. Ushbu nom arab tilidan kelib chiqqan bo'lib, "Al-Hamrā'" (الحمراء) so'zidan olingan. Arab tilida "hamrā'" "qizil" degan ma'noni anglatadi va bu nom qizg'ish devorlari bilan ajralib turuvchi inshootning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan.

Alhambra nomi qizil tuproq va yirik toshlardan qurilgan devorlar bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa quyosh botishi chog'ida qizil rangning yanada yaqqol ko'rinishi bu nomning shakllanishiga sabab bo'lgan. Granada hududida arablar tomonidan barpo etilgan ushbu saroy va harbiy istehkom dastlab harbiy mudofaa maqsadlarida qurilgan, biroq vaqt o'tishi bilan andalusiyalik hukmdorlarning hashamatli qarorgohiga aylangan.

Alhambra qurilishi Nasridlar sulolasi asoschisi Muhammad I ibn Nasr (1238–1273) tomonidan boshlangan va uning vorislari tomonidan davom ettirilgan. Ular "Al-Hamrā'" (Qizil Qal'a) nomini ushbu qasrni barpo etishda ishlatilgan materiallarning tabiiy rangi bilan bog'liq holda tanlashgan. Alhambra nafaqat istehkom, balki siyosiy, madaniy va diniy markaz sifatida ham muhim rol o'ynagan.

Alhambra nafaqat o'zining harbiy-strategik ahamiyati bilan, balki muqaddas joy va san'at markazi sifatida ham ajralib turadi. Uning devorlari, ichki hovlilari va zallari nozik naqshlari, muqarnas bezaklari va kufiy xat bilan ishlangan yozuvlar bilan bezatilgan [1].

Saroyning tuzilishi o'rta asr arab me'morchiligi va Andalusiya islom san'ati tamoyillarini o'zida mujassam etib, Sharq va G'arb madaniyatlarining o'zaro uyg'unlashuvi namunasiga aylangan.

Medina-Sidonia – Ispaniyaning Andalusiya mintaqasidagi Kadis provinsiyasida joylashgan qadimiy shahar bo'lib, uning nomi arab va lotin tillarining o'zaro uyg'unlashuvidan kelib chiqqan. Ushbu toponim tarixan arab,

finikiy, rim va ispan madaniyatlari kesishgan hududlardan biri bo'lib, har bir davr uning nomiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

“Al-Madīnah” (المدينة) – arab tilida “shahar” degan ma'noni anglatadi. Arablar tomonidan istilo qilingan shaharlarga “Madina” nomi berilgan bo'lib, bu toponim ularning hududiy nomlash an'alarini aks ettiradi.

“Sidonia” – lotincha va finikiycha kelib chiqishga ega bo'lib, u qadimgi Finikiyaning Sidon shahriga (hozirgi Livan) ishora qiladi. Finikiyaliklar ushbu hududda savdo koloniyalarini barpo etgan va Rim imperiyasi davrida bu nom saqlanib qolgan [4].

Shunday qilib, Medina-Sidonia nomi arabcha va lotincha unsurlar uyg'unlashuvi natijasida shakllangan bo'lib, shahar tarixiy bosqichlar davomida turli sivilizatsiyalar ta'sirida rivojlangan.

VIII asrda arablar tomonidan bosib olinganidan so'ng, shahar arab madaniyati va islom arxitekturasiga bilan boyitildi. Andalusiya'dagi arablar Medina nomini o'zlari qayta qurgan va rivojlantirgan shaharlarga berganlar, bu esa ularning urbanizatsiya siyosatiga mos tushadi.

Medina-Sidonia arab istilosidan keyin Andalus madaniyatining yodgorligi sifatida saqlanib qolgan. Shahar o'zining qadimiy arxitekturasiga, tor ko'chalari va tarixiy binolari bilan mashhur bo'lib, u Andalusiyaning madaniy merosini o'zida mujassam etadi.

Medina-Sidonia nafaqat tarixiy obidalar, balki o'zining an'anaviy shirinligi – alfajor bilan ham mashhur.

“Alfajor” – arabcha “al-hasú” (الحشوة) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “to'ldirilgan” yoki “ichiga solingan” degan ma'noni anglatadi.

Ushbu shirinlik arab oshxonasi ta'sirida shakllangan bo'lib, u Ispaniyaning eng qadimgi gastronomik meroslaridan biri hisoblanadi.

Guadalajara – Ispaniyaning Kastiliya-La Mancha mintaqasida joylashgan qadimiy shahar bo'lib, uning nomi arab tilidan kelib chiqqan. Ushbu toponim “Wādī al-Hijārah” (وادي الحجارة وادي) iborasidan olingan bo'lib, u “toshli vodi” degan ma'noni anglatadi.

“Wādī” (وادي) – arab tilida “vodi”, ya'ni suv oqimi o'tadigan pasttekislikni anglatadi.

“Hijārah” (حجارة) – “toshlar”, ya'ni hududning toshloq landshaftini ang'latuvchi so'z.

Shunday qilib, Guadalajara nomi “toshlar vodiysi” ma'nosini anglatib, shahar geografik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ushbu nom shahar yaqinidagi toshloq va g'orli hududlar sababli arablar tomonidan berilgan bo'lishi ehtimol.

Arablar istilosi davrida shahar Andalus madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, rivojlangan mudofaa tizimiga ega bo'lgan [9, 10]. XI asrda Kastiliya qiroli Alfonso VI tomonidan bosib olinganidan so'ng, shahar ispan nazoratiga o'tgan, biroq uning arabcha ildizga ega nomi saqlanib qolgan. Vaqt o'tishi bilan ushbu nom ispan talaffuziga moslashtirilib, hozirgi Guadalajara shaklini olgan.

Guadalajara nomi Ispaniyaning arab-mavriy merosi va Kastiliya an'analari uyg'unligini aks ettiruvchi yorqin

misollardan biri hisoblanadi. Ushbu toponim nafaqat arab tilining ispan toponimiyasiga ta'sirini, balki ispan madaniyatining o'zlashtirish va moslashish jarayonlarini ham aks ettiradi.

Tarifa – Ispaniyaning janubida, Gibraltar bo'g'oziga yaqinida joylashgan shahar bo'lib, uning nomi arab tilidan kelib chiqqan. Ushbu toponim “Tarīfah” (طريفه) so'zidan olingan bo'lib, u VIII asrda Andalusga yurish qilgan arab sarkardalaridan biri – Tarif ibn Malik nomi bilan bog'liq. 710-yilda Tarif ibn Malik Shimoliy Afrikadan yetib kelib, Ispaniyaning janubiy qirg'oqlariga birinchi arab harbiy ekspeditsiyasini uyushtirgan va bu hududda o'z ta'sirini o'rnatgan. Ushbu yurish ispan tarixida Al-Andalus davlatining tashkil topishiga olib kelgan muhim bosqichlardan biri bo'lib, 711-yilda Tariq ibn Ziyod boshchiligidagi asosiy arab qo'shinlari Ispaniyaga kirib kelishining tayyorgarlik qismi sifatida xizmat qilgan. Tarifa shahri ushbu tarixiy hodisalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning nomi arab istilosining ilk bosqichlarini aks ettiradi. Bugungi kunda Tarifa nafaqat tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan shahar, balki Andalusning arab madaniy merosini o'zida mujassam etgan eng qadimiy port shaharlaridan biri sifatida ham tanilgan.

Xulosa. Arabcha toponimlarning ispan va o'zbek tillaridagi shakllanishi lingvistik, tarixiy va madaniy jihatdan chuqur iz qoldirgan murakkab jarayon bo'lib, ushbu nomlarning tahlili xalqaro madaniy aloqalarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Arab istilosi natijasida ispan va o'zbek hududlarida shakllangan toponimik qatlam nafaqat geografik nomlash tizimini o'zgartirdi, balki turli tillarning fonetik va morfologik moslashuv jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatdi.

Ispaniyada arab toponimlari ko'pincha strategik, harbiy va diniy ma'nolar bilan bog'liq bo'lib, Guadalupe, Almería, Alhambra, Guadalajara, Tarifa kabi nomlar arabcha ildizlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ushbu toponimlarning aksariyati arab istilosi davrida shakllangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ispan tiliga moslashtirilgan va bugungi kungacha madaniy merosning bir qismi sifatida saqlanib qolgan. Ayniqsa, Alhambra saroyi yoki Guadalupe nomining ispan madaniy va diniy merosiga integratsiyalashuvi arabcha va ispancha lingvistik uyg'unlikni yaqqol namoyon etadi.

O'zbekistonda esa arabcha toponimlar asosan diniy va harbiy meros bilan bog'liq bo'lib, Rabot, Balandrabot, Qo'shrabot kabi nomlar arab harbiy istehkomlaridan meros qolgan. Shuningdek, masjid, madrasa, nahr, tal kabi arabcha atamalar ham geografik nomlar tarkibida uchraydi va ular o'zbek tilining tarixiy qatlamlarida muhim o'rin egallaydi.

Bu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, til va madaniyatlar o'zaro ta'sir jarayonida doimiy rivojlanadi, va arabcha toponimlarning ispan va o'zbek tillarida saqlanib qolishi ko'p asrlik tarixiy, lingvistik va madaniy integratsiyaning yorqin dalilidir. Ushbu nomlarning shakllanishi xalqaro madaniy muloqot, tarixiy migratsiya va sivilizatsiyalar o'zaro ta'sirini tushunishda muhim kalit hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Bakhronova D. (2019). Axiological evaluation as the base of knowledge and cultural research of Spanish and Uzbek languages. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE), 8-jild, 2S11-son, 2019-yil sentyabr. DOI: 10.35940/ijrte.B1486.0982S1119.
2. Dadabayev X.A. (1981). Qadimgi o'zbek tilida harbiy leksika. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun yozilgan avtoreferat. - Toshkent, 1981. 21-bet.
3. Dadaboyev K., & Bakhronova D. (2021). The linguistic formation of defense and engineering terms in Uzbek language. Religación. Revista De Ciencias Sociales Y Humanidades, 6(30), e210871. DOI: 10.46652/rgn.v6i30.871.
4. Eshonqulov B.X. (1996). Hozirgi o'zbek adabiy tilida arabcha lug'aviy o'zlashmalarning paradigmatic assimilyatsiya munosabati. Filologiya fanlari nomzodi (PhD) dissertatsiyasi. - Toshkent.
5. Kazakbayeva G.A. (2006). O'zbek tilidagi arabizmlarni o'rganishda o'zlashmalarni nazariy tahlili. Tarix, tarixshunoslik, iqtisodiyot, tilshunoslik va adabiyot masalalari, ilmiy maqolalar to'plami. - Moskva: IV RAN.
6. Nurmonov A. (2002). O'zbek tilshunosligi tarixi. - Toshkent: O'zbekiston.

7. Qorayev S. (2005). O'zbekiston viloyati toponimlari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
8. Qorayev S. (2006). Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.
9. Temirov Sh. (2019). Samarqand viloyati oronimlarining lingvistik tahlili. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Qarshi.
10. Темуров Азизбек. (2024). Влияние арабского языка на испанский язык. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences// <https://oriens.uz/journal/article/vliyanie-arabskogo-yazika-na-ispanskiy-yazik/>